

**FRANSUZ VA O`ZBEK TILIDA SO`RASHISH, KO`RISHISH VA  
XAYRLASHISH JARAYONIDA ISHLATILADIGAN XUSHMUOMALALIK SHAKLLARINI  
O`QITISHNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Sindorov Rajapboy Ulug`bek o`g`li**  
SamDChTI 1-bosqich tayanch doktranti  
[rajapboysindorov77@gmail.com](mailto:rajapboysindorov77@gmail.com)

**Peculiarities of teaching the forms of politeness used in the process of questioning, seeing and saying goodbye in French and Uzbek**  
**Особенности обучения формам вежливости, используемым в процессе расспроса, встречи и прощания на французском и узбекском языках**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O`zbekistondagi salomlashish harakatlari, ishlatiladigan so`zlar hududlararo qo`llanilishi. Salomlashish jarayonida noverbal vositalardan ham unumli foydalanilishi. Shuningdek, turli yoshdagi kishilar salomlashishlari yoki ko`rishishlarida ham o`zaro katta farqlanilishi.

**Kalit so`zlar.** So`rashish jarayoni, salomlashishda ma`lum qoidalar, rasmiy va norasmiy salomlashishlar, xushmuomalalik, so`rashish.

**Annotation.** This article is about the greetings in Uzbekistan, the interregional use of the words used. Effective use of nonverbal means in the greeting process. There is also a big difference in how people of different ages greet or see each other.

**Keywords.** The process of inquiry, certain rules of greeting, formal and informal greetings, courtesy, inquiry.

**Аннотация.** Эта статья о приветствиях в Узбекистане, межрегиональном использовании используемых слов. Эффективное использование невербальных средств в процессе приветствия. Существует также большая разница в том, как люди разных возрастов приветствуют или видят друг друга.

**Ключевые слова.** Процесс дознания, некоторые правила приветствия, официальные и неформальные приветствия, вежливость, дознание.

So`rashish jarayoni, avvalo, o`zbeklarda ham fransuzlarda ham birdek salomlashishdan boshlanadi. Bu ikki yurt bir-biridan qanchalik uzoqda jolashmasin, ayollar va erkaklar salomlashish tarzi bir-biridan katta farq qiladi. Salomlashish turli ijtimoiy tabaqaga mansublikka, yashash manzili (qishloq yoki shahar)ga, muayyan ruhiy holatga, kim bilan so`rashayotganiga ko`ra, shuningdek boshqa muloqot vaziyatlariga qarab ham turlicha amalga oshirilishi mumkin. Salomlashish jarayonida noverbal vositalardan ham unumli foydalaniladi. Shuningdek, turli yoshdagi kishilar salomlashishlari yoki ko`rishishlarida ham o`zaro katta farq bor.

Salomlashishda ma`lum qoidalar mavjud. Unga ko`ra, kichik yoshdagilar yoshi ulug`larga, ulov mingan odam piyodaga, piyoda ketayotgan kishi o`tirganga, ozchilik ko`pchilikka salom beradi. Assalomu alaykum ko`pchilik huzuriga kirib o`tirishda ham aytiladi. Salom berganda uning samimiy va muloyim chiqishini, eshitarli bo`lishini ta`minlash lozim. Masalan:

“Assalomu alaykum” — bu o‘zbek xalqi qabul qilgan salomlashish turi. “Assalomu alaykum” arabcha so‘z bo‘lib, sizga tinchlik, salomatlik tilayman, degan ma‘noni anglatadi. Bu so‘z musulmonlar o‘zaro uchrashganda ishlatadigan salomlashuv iborasi sifatida qabul qilingan. Salomni qabul qiluvchi «Va alaykum assalom» («Sizga ham tinchlik, salomatlik tilayman»), deb javob qaytaradi. O‘zbeklar orasida «Assalomu alaykum», asosan yoshlar tomonidan yoshi kattalarga, xodim tomonidan rahbariga, farzand tomonidan ota-onasiga; tongda, tunda ishlatishadi. Ya‘ni leksik birlik o‘zbek tilida rasmiy va norasmiy uchrashuvlarda, kunning qaysi vaqtidan, kishilar yoshidan qat‘iy nazar har qanday hollarda qo‘llaniladi. Demak, «Assalomu alaykum» leksik birlik salomlashishning dominant birligidir.

Fransuz tilida bu birlikning aynan muqobil varianti yuq, biroq fransuz tilidagi “Bonjour” leksik birligi qisman «Assalomu alaykum»ga mos keladi. Fransuzlar “Bonjour” leksik birlikni rasmiy va norasmiy uchrashuvlarda, do‘stlar, oila davrasi, hamkasblar orasida qo‘llashadi, biroq uni faqat soat 18:00 gacha qo‘llash mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, fransuz tilidagi “Bonjour” o‘zbek tildagi «Assalomu alaykum» leksik birlikka nisbatan qo‘llanish doirasi cheklangan. “Bonjour” leksik birlikni rasmiy qo‘llanilganda “Bonjour Madame”, “Bonjour Monsieur”, “Bonjour Mademoiselle” kabi hurmatni bildiruvchi birliklar qo‘shiladi. O‘zbek tilida “Bonjour Monsieur” “Salom, Janob” yoki “Assalomu alaykum, janob”ga; “Bonjour Madame” esa “Salom, Xonim” yoki “Assalomu alaykum, Xonim” kabi muqobil tarjima qilinadi. “Bonjour Mademoiselle”-bu leksik birlik Fransiyada bugungi kunda unchalik keng qo‘llanilmayapti, bunga sabab “Mademoiselle” so‘zining yosh turmush qurmagan xonimlarga nisbatan qo‘llanilishidir, muloqot jarayonida esa so‘zlovchining ijtimoiy kelib chiqishini bilish ancha mushkul va bu bir qancha noqulay vaziyatlar tug‘dirishi mumkin.

Eng avvalo, salomlashish turlari haqida gapirar ekanmiz, fransuz va o‘zbek erkaklarning erkaklar bilan salomlashishi hamda erkaklarning ayollar bilan salomlashishini alohida guruhga ajratamiz. Misol tariqasida: Jamshid o‘zbeklarga xos lutf bilan salom berib, “Siz falonchi akamisiz?”, “Sizni falonchi akam yo‘qlayaptilar” deb latta chaynashni yoqtirmas edi. Eshik qiya ochilib, Elchin ko‘rinishi bilan “Sizni Bek akam chaqiryaptilar” dedi-yu mashinasi tomon yurdi - Og‘ayni, tanishib olaylik, ismingiz nima edi? – Elchin bu yigitni avval yaxshi tanigan-u, shu damda ismini unutib qo‘yganday so‘radi. – Keyin... keyin, bir gap bo‘lar... – Elchin shunday deb, xayrlashish uchun qo‘l uzatdi. Asadbek ulardan hech mahal hol-ahvol so‘ramasdi. Ikki oyoqda yuribsami – bas, ahvoling yaxshi, derdi. Shuning barobarida bironing hol so‘rashini ham yoqtirmas edi. Tobi qochib qolgan kezlari uning odatini bilmagan odam: “Tuzukmisiz?” deb so‘rasa, “Ha, o‘lishim kerakmidi?” degan shirin javobni eshitardi. (T M. Sh I kitob 34-b)

Misollardan ma‘lum bo‘ladiki, erkaklar o‘zaro salomlashganda, ko‘rishganda yoki xayrlashganda ularning nutq odobida bu ishni alohida lutf-u nazokat bilan amalga oshirishga ishtiyoqning yo‘qligi erkaklar salomlashishidagi o‘ziga xoslikni belgilaydi.

Erkaklar o‘zaro so‘rashishganda ham muayyan muloqot me‘yorlariga amal qiladilar. Misol tariqasida “Assalomu alaykum, salom berdik, salomlar bo‘lsin, yaxshimisiz, omonmisiz, qalaysan, bormisan, o‘, kimni ko‘ryapman,” yoki fransuz tilida “Bonjour, Salut, ça va, bonjour à tous, Bonjour! Salut! Bon après-midi! Bonsoir. Bonne journee! Bonne fin de journee !Bonne nuit!» kabi birliklarni keltirishimiz mumkin.

Erkaklar bilan ayollar so‘rashishlari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, bu jarayon ham o‘zbeklar va fransuz xalqiga xos odob-axloq qoidalariga qat‘iy rioya etilgan holda bo‘lib o‘tadi. Muloqot jarayonida ayollarga alohida hurmat ila murojaat qilish bu millatidan qat‘iy nazar erkak

kishining etikasini ko`rsatadi.

Masalan: Fransuz tilida bir erkak ayol hamkasbi bilan so`rashadigan holatni ko`raylik,

« -Bonjour, Madame Pascale ! Vous allez bien?

-

Bonjour, Monsieur Duval ! Oui, ça va bien. Merci et vous ?

Je vais bien, madame...»

O`zbek tilida esa bu holatni quyidagicha ko`rishimiz mumkin:

“- Assalom aleykum, Zebo Musayevna! Hol-ahvollaringiz yaxshimi?

-

“ Assalom aleykum, Rustam Toshpo`latovich! Oллоhga shukr

yaxshi...”

Fransuz tilida murojaat vaqtida so`rashish leksik birligi (Bonjour) + Madame/Monsieur + sharif bo`lsa, o`zbek tilida so`rashish leksik birligi + ism + sharif kabi formulaga ega bo`lyapti.

Ayollarning o`zaro salomlashishlari – bu alohida mavzuiy guruh bo`lib, o`zbek nutq va muloqot odobidan kelib chiqqan holda uning naqadar boy manbaga asoslanishini ta`kidlashimiz zarur. O`zbek va fransuz ayollari salomlashish davomida deyarli bir xil leksik birliklardan foydalanishadi, faqatgina so`rashish jarayonining keyingi bosqichida suhbatdoshlar bir-birlarning hol-ahvoli bilan qiziqishganda ularning leksik birlikardan foydalanish uslub va hajmi o`zgarib boradi.

Masalan: Bonjour! Salut! Coucou! Bon après-midi! Bonsoir. Bonne journee! Bonne fin de journee !Bonne nuit!

Assalomu alaykum, Salom, salom berdik, hammaga salom, yaxshimisiz, omonmisiz, qalaysan, bormisan, o`, kimni ko`ryapman

O`zbekistondagi salomlashish harakatlari, ishlatiladigan so`zlar hududlararo biroz bo`lsa-da, farqlanadi. Lekin o`zaro aloqalarning mustahkamligi, aholining etnik jihatdan u qadar farqlanmasligi sababli keskin tafovutlar uchramaydi. Qo`l siqish, quchoqlashish, yelka olish, bir-birining tirsagini ushlab so`rashish (ayollar orasida) deyarli hamma joyda uchraydi. Shuningdek, erkaklar bilan erkaklar, ayollar bilan ayollar, erkaklar bilan ayollarning so`rashishida ham (qo`l harakatlari nuqtai nazaridan) farqlar mavjud.. Qolaversa, ikki qayta ko`rishish ham an`anaga aylanib qolgan. Ya`ni, davralarda avval umumiy, keyin esa alohida-alohida so`rashishga o`tiladi. Har bir mehmon mezbondan, keyin o`zaro bir-biridan hol-ahvol so`rab chiqadi. Buni salomning ikkinchi qismi deb atash ham mumkin.

Fransiyada ham qo`l siqish, quchoqlashish, yelka olish, o`pishib ko`rishish kabi salomlashish harakatlari mavjud. Ammo ba`zi harakatlar mentalitetdan kelib chiqqan holda turlicha. Masalan Fransiyada Ayol va Erkak o`pishib ko`rishishi odatiy hol sifatida qaraladi. O`zbek madaniyatiga esa bu umuman to`g`ri kelmaydigan harakatdir. Yoki bo`lmasam o`zbek ayollari ko`rishayotganda bir-birlarining yelkalariga urib quyishlari fransuz ayollari o`rtasida kuzatilmagan.

Bundan shunday xulosaga kelamizki, bu ikki xalq o`rtasida nafaqat so`zlar, leksik birliklar ishlatishda, balkim jestlar(harakatlar) orqali ham farqlar kuzatiladi.

So`nggi vaqtlarda rivojlanish va ong o`zgarishi natijasi o`laroq, salomlashish an`anasida ham “ mutatsiyalar ” ya`ni “o`zgarish”, “qorishish” lar ko`zga tashlanmoqda. Bu ayrim kishilar o`rtasidagi salomlashishdagi nazokat, ehtiromning yo`qolib borayotganida, ayniqsa yoshlar orasida, namoyon bo`ladi. Kundalik hayotimizda yangidan-yangi salomlashish turlari paydo bo`lmoqda. Bosh urishtirish, yelkalarni urishtirish, salomlashganda nafaqat qo`l, balki oyoqlarning ham ishlatilishi shular jumlasidan. Qolaversa,

ayrim yigitlarning o'ta nafislik bilan o'pishib ko'rishishlari ham atrofdagilarga biroz erish tuyulishi mumkin. Bu harakatlar ko'p hollarda o'zaro yaqinlik, boshqalardan ajralib turish istagi bilan izohlanar, balki. Bunda boshqa xalqlar va ular madaniyatining ta'siri borligini ham inkor eta olmaymiz. Masalan o'zbek tiliga rus va ingliz tilidan kirib kelgan qisqa salomlashuvlar, fransuz tiliga esa ingliz tillidan kirib kelgan salomlashuv leksik birliklarini yoshlar orasida ko'p qo'llanishini kuzatishimiz mumkin.

Masalan: Privetiki! (приветики), Chyotkimisan? (Чёткий sifatini

kalkalash yo'li bilan kirib kelgan bo'lib, o'zbek tilida zo'rmisan? degan leksikaga sinonim bo'ladi.)

Hello! Hi! How are you? Tchao! Bye! – bu leksik birliklar ingliz tilidan bir vaqtning o'zida ham o'zbek, ham fransuz tiliga kirib keldi.

So'rashish jarayonining keyingi bosqichida suhbatdoshlar bir-birlarning hol-ahvoli bilan qiziqadilar. Odatda, o'zbek ayollari o'zaro uzoq so'rashishadi, lekin fransuz ayollari esa ortiqcha mulozamat, ortiqcha so'zlardan foydalanishmaydi.. Nutqimizda turg'un bo'lib qolgan so'rashish qurilmalaridan biz o'zbeklar unumli foydalanmiz. Masalan, “Esonmisiz, omonmisiz, bormisiz, yaxshimisiz, sog'-omongina yuribisizmi, salomatmisiz, bardam-baquvvatmisiz, adam (yoki boshqa oila a'zolari so'raladi, ba'zan ularning ismi aytib so'raladi) yaxshimilari, yaxshi yuribdilarmi, yaxshi bo'lib qoldingizmi, opoq bo'lib qoldingizmi, uychilar tinchmi, Ha bo'ylaringga qoqinuqk... ha, o'zim o'lay sizga Zamirajon... aylanib ketay, uydagilaringizga salom aytishni unutmang-a... ..” kabi. Bu birliklar O'zbek xalqiga xos bo'lib, hayoti davomida tanigan va tanimagan kishilar bilan ham quyuq ko'rishishadi.

Fransuz ayollari o'rtasida o'zbek ayollari kabi boy leksik birlikdan foydalanishmaydi, Ular asosan qisqalikka, vaqtni tejashga intilishadi.

Masalan: Comment allez-vous ma chérie... ça va... Comment vas-tu? Comment vous portez-vous?

Javoblar ham qisqalikka asoslangan bo'ladi : Parfait (ajoyib), Bien ( Yaxshi), Tout va bien ( Hammasi a'lo), Pas mal (yomon emas).

Bundan tashqari fransuz va o'zbek tilida salomlashish paytida nafaqat qarindoshlik aloqalari yoki jinsi, balki kunning qaysi vaqti, suhbatdoshning kasbi, mavqeyi ko'ra ham farqlanadi. Masalan:

Salomlashish paytiga ko'ra :

Bonjour- Xayrli kun!

Bonne journee! – Xayrli tong !

Bon apres-midi! - bu salomlashish leksik birligi tush payti soat oralig'ida qo'llaniladi, O'zbek tilida uning aynan muqobili yuq, ammo to'g'ridan – to'g'ri tajimasi « Xayrli tush »

Bonsoir.- Xayrli kech !

Bonne nuit!-Xayrli tun !

Mavqe va kasbiga ko'ra esa :

Bonjour, madame directrice !

Bonne journée, monsieur ambassadeur !

Assalom aleykum, shofyor aka !

Assalom aleykum , o'rtoq mayor!

Fransuz va o'zbek xalqi xayrlashish davomida ham muomala madaniyatidan, mentalitetidan kelib chiqqan holda leksik birliklarni qo'llashadi.

Au revoir!- Xayr  
A bientôt!- Ko`rishguncha !  
A tout a l'heure! – yaqin orada korishguncha  
A demain!- Ertagacha !  
A lundi!- Dushanbagacha !  
A la semaine prochaine! – Kelasi haftagacha !  
A plus tard!- Birozdan so`ng ko`rishguncha !  
A plus!- Xayr !  
Tchao! - Ko`rishguncha !

Bye- Bye ! - Xayr-Xayr, asosan qo`l siltab xayrlashayotganda qo`llaniladi.

Bundan tashqari o`zbeklar o`zaro xayrlashayotganda Salomat bo`ling! Omon bo`ling!...kabi jummalarni qo`llashadi.

O`z navbatida, ayollarning so`rashish vaziyati mavzuiy guruhlari ayollarning ayollar bilan ko`rishishlari, ayollarning erkaklar bilan ko`rishishlari kabi ikki katta guruhga ajratiladi. Ayollarning ayollar bilan salomlashish, so`rashish, ko`rishish yoki xayrlashish nutqiy vaziyatida qo`llovchi birliklar ayollarning erkaklar bilan ko`rishganda yoki salomlashganda qo`llaydigan birliklaridan farq qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bu dunyoda har bir xalq o`ziga yarasha salomlashish va xayrlashish uslublari mavjud. Lekin bu jarayon hamma xalq uchun bir xildir. Demak, siz tanishingizni, qarindosh-urug`ingizni yoki do`stingizni uchratganda albatta unga qo`l tutib yoki quchoqlashib ko`rishasiz undan hol- ahvolini so`rab-surishtirasiz. Bu jarayon esa umumiy holda salomlashish deyiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

- 1.Armand Colin. Paris, 2006, 418 p
- 2.Bally. C, A. Sèchehayé , Ferdinand de Saussure. Cours de linguistique générale, Payothèque. Paris, 1975, 214 p.
- 3.Bénac.H, B. Réauté , Nouveau vocabulaire de la dissertation et des études littéraires, Hachette. Paris, 1986 , 248 p.
- 4.Galichet G. Grammaire structurale du français moderne. P., 1970, 411 p
- 5.Garnier.y, M. Vinciguerra , Le Petit Larousse illustré. Paris, 2006, 615 p.
- 6.Ibragimov X., A.Mamadaliyev va boshqalar. Dictionnaire Français-Ouzbék, -Toshkent. 2008, -587b.
- 6... Jalolov. J. Chet tili o`qitish metodikasi "O`qituvchi" Nashriyot - matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2012
- 7.Йўлдошев Ж.Ф., Усмонов С. Илғор педагогик технологиялар. – Т.: Ўқитувчи, 2004.
- 8.Рўзиева Д., Усмонбоева М., Ҳолиқова З. Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши / Мет.қўлл. – Т.: Низомий номли ДТПУ, 2013. – 115 б.
- 9.О‘. Hoshimov., I. Yoqubov. Ingliz tili o`qitish metodikasi. Toshkent – 2003.